



## BOSHLANG'ICH SINIF MUSIQA DARSLARIDA MILLATLARARO TOTUVLIK G'OYALARINI SHAKLLANTIRISH

**Muallif:** Boltayev Baxtiyor Rustamovich <sup>1</sup>

**Affilyatsiya:** O'zbekiston-Finlandiya pedagogika institute “Musika ta'limi” kafedra  
dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori <sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.14436516>

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf musika darslarida millatlararo totuvlik g'oyalarini shakllantirish masalalari muhokama etilgan.

**Kalit so'zlar:** musika, ijrochilik, cholg'u, dars, mashg'ulot, an'ana, ijodiy faoliyat, faoliyat turlari.

Xalqaro munosabatlar tizimida millatlararo munosabatlar bugungi kunda murakkab xarakter kasb etmoqda. Bu yo'nalishda vujudga kelayotgan ziddiyat va tuqnashuvlar mamlakatlar hududiy yaxlitligiga xavf solish bilan birga davlatlar orasida salbiy munosabatlarning vujudga kelishiga ham sabab bo'lishi mumkinligi hech kimga sir emas. Bu boradagi izlanishlarga dunyo miqyosida qabul qilingan: “Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi”ni [1, 234b]; dunyo miqyosida chop etilgan bir qator asarlarni ko'rsatish mumkin.

Mustaqillik yillarida millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganini mamlakat Prezidenti Sh. Mirziyoevning “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5046-sonli Farmonni imzolagani, shunga muvofiq O'zR VM huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari Qo'mitasi tashkil etilganida[3,45b] ham ko'rish mumkin.

Mamlakatimizda turli millat va diniy konfessiyalar vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, do'stlik va ahillik muhitini mustahkamlashga birinchi darajali e'tibor qaratiladi. Bu – bizning eng katta boyligimiz va uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash barchamizning burchimizdir”[5,234b]. Bundan tashqari, Sh. M. Mirziyoyevning: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz” [7,14b], – degan so'zlarini kelajak vorislariga, jumladan, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilariga bo'lgan yuksak ishonch va g'amxo'rlik ifodasi deya baholash mumkin.

Millatlar o'rtasida totuvlik, do'stlik rishtalarini mustahkamlashda musika muhim vositalardan biri sanaladi. Go'zal musika har qanday millat qalbiga birday ta'sir qiladi. Ma'lumki, bizning diyor azaldan yuksak madaniyat va ma'naviyat maskani sifatida

olamga mashhur. Respublikamiz mustaqillikka erishgach bu azaliy qadriyatlarni yana tiklash, boy merosimizning asl manbalarini o'rganish, ular bilan kelajak avlodni oshno qilishga intilish kuchayib ketdi.

Ma'naviy qadriyatlarimiz qatorida musiqa alohida o'rin tutadi. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan qadimiy kuy va qo'shiqlar ajdodlarimiz ma'naviy hayotidan dalolat beruvchi ruhiy omildir. Ota-bobolarimiz musiqa insonni kamolotga undovchi kuch deb bilganlar. Eng ta'sirli va eng ommaviy ma'naviy ozuqa vositasi sifatida musiqaga yuksak ijtimoiy maqom berilgan.

Davlat ahamiyatiga molik tarbiya darajasiga bo'lgan musiqa doimo diqqat markazida bo'lgan. Odamzot hayotining doimiy hamrohi bo'lgan va uning ma'naviy dunyosini to'ldirib, doimo ezgulik va poklikka chorlagan ilohiy qudrat – musiqa san'ati, o'zbek xalqining buyuk mutafakkir shoiri Alisher Navoiy ta'biri bilan aytganda, ko'ngil quvati, ruh saodatidir. [2,28.b]

Bu abadiy haqiqatni millati, tili va dinidan qat'iy nazar, har qaysi ona o'z farzandiga aytadigan alla ohanglariga, inson zotining har qanday holatda – yorug' va quvonchli kunlarda ham, boshiga musibat tushguvchi qayg'uli lahzalarda ham musiqaning mo'jizakor kuchidan madad va taskin topishda ko'rish mumkin.

Ayniqsa, xalqlar va madaniyatlar tobora yaqinlashayotgan hozirgi globallashuv davrida, shiddatkor taraqqiyot asrida, shu bilan birga sayyoramizning turli burchaklarida yovuz kuchlar o'z qabih niyatlarini amalga oshirishga urinayotgan bir sharoitda, yer yuzida hayotni asrash, odamlarni ezgulik va bag'rikenglikka da'vat etishga madaniyat va san'at, xususan, musiqa dunyosining ta'siri beqiyos ekani barchamizga yaxshi a'yon.

Yurtimizda utkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" hamda "Maqom" xalqaro musiqa festivalida ishtirok etadigan barcha ijrochi xonanda va sozandalar nafaqat o'zining betakror san'atini, ayni paytda o'z ona yurtining nafasini ham olib kelib, o'lmas milliy qadriyatlarini namoyon etadilar, turli millat vakillarini o'zaro birlashtiradilar. O'zbekiston jahon sahnasiga yuz tutayotgan bir paytda bunday musiqiy anjumanlarining o'tkazilishi katta ahamiyatga ega. Chunki musiqa millatning ichki dunyosini ochib beradi. Har qanday kuy-qo'shiqda millatning ruhiy olami, ma'naviyati aks etib turadi. Shu ma'noda musiqaning xalqlarni birlashtirishdagi roli katta. Chunki har qanday musiqaning poydevorida millatning ruhi, uning qalbi aks etgan kuy-qo'shiqlari, ohangi yotadi.

Musiqa yosh, millat, til tanlamaydi, barcha millat vakillariga, yoshu-qarilariga birdek ta'sir etadi.

San'at va madaniyatni rivojlantirmasdan turib, hech qachon mukammal barqaror taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Musiqiy merosni saqlash va rivojlantirish uchun yangi dasturlar ishlab chiqish, musiqashunoslarni o'qitishni takomillashtirish yosh san'atkorlarni ijobiy bunyodkorlikka ilhomlantirish zarur. Musiqa eng ta'sirli va eng ommaviy ozuqa vositasidir. Musiqa, voyaga yetib kelayotgan yoshlarda vatanparvarlik hissini, mardlik, qat'iylik, mehribonlik, insonparvarlik ayniqsa millatlararo totuvlik singari ma'naviy sifatlarni shakllantirishda ta'sirchan vosita bo'lib xizmat qiladi. Bu borada yurtimizda ko'zga ko'rinarli maqtansa arzigulik ishlar amalga oshirilmoqda.

Musiqaga barcha birday qiziqar ekan, musiqa orqali ma'lum bir natijaga erishishda maktabdagi musiqa darslari hamda tugaraklarning o'rni beqiyosdir. Yoshlar

qalbida millatlararo totuvlik hissini shakllantirish uchun qanday kuy-qo'shiqlarni eshittirib urgatishimiz kerak?.. Albatta bu savol o'rinli, maktab darliklarida milliy kuy-qo'shiqlarimiz bilan birgalikda jahon xalqlarning musiqalaridan namunalarni ham berilgan, lekin bo' namunalarni millatlararo totuvlik g'oyasini shakllantirishga kamlik qilishi mumkin. Asosan beshinchi-oltinchi sinf musiqalarida qarindosh xalqlar musiqalaridan hamda jahon xalqlari klassik musiqalaridan namunalarni, kompozitorlari haqida ma'lumotlar berilgan. Xo'sh musiqalar darslari orqali millatlararo totuvlik g'oyasini yanada ko'proq sinigdirish uchun yana qanday imkoniyatlarda foydalanishimiz zarur.

Birinchi: Boshlang'ich sinflardan boshlab xorij kompozitorlarining bolalar uchun yozilgan yengil kuy-qo'shiqlardan namunalarni eshittirishimiz kerak.

Ikkinchi: Multifilm, qog'irchoq teatri, ertak kinolardan, musiqali sahnalarni tasviri tushirilgan audio, video yozuvlardan foydalanish zarur. Chunki televideniye orqali kursatilgan o'sha multifilm yoki ertak kinolarda mavzuga xos o'zimizning yoki xorijiy kompozitorlarning musiqalaridan ustalik bilan foydalanilgan.

Uchinchi: dars jarayonida qaysi millat kuy qo'shiqlarini eshittirilsa, usha xalq urf-odatini, milliy musiqasini, yashash tarzi, turmushi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tishi zarur.

To'rtinchi: Qarindosh xalqlar va boshqa tillarda yozilgan qo'shiqlardan parchalar kuylash maqsadga muvofiq.

Beshinchi: Boshlang'ich sinflarda tadbirlarda bayram tadbirlarda xorij xalqlarining ertak tomoshaliridan namunalarni sahnalashtirish hamda usha jarayonda imkon qadar usha xalqning musiqasidan fon sifatida foydalanish ahamiyatga molik.

Oltinchi: Xalqaro "Sharq taronlari", "Maqom" festivallarida ijro etilgan kuy va qo'shiqlardan namunalarni eshittirib, video yozuvlarni namoish etib borish zarur.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz joizki bugungi kunda dunyoning turli burchaklarida avj olib turgan urush va xunrezliklarning tag zamirida millatlararo totuvlik g'oyalarni hamda diniy bag'rikenglik tushunchalarini yetishmasligi oqibatidir. Ko'p millatli yurtimizda olib borilayotgan bu boradagi ishlar maqtashga arzigulikdir. Sababi millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik g'oyalari yurtimizda yashab kelayotgan barcha millatlar orasida davlat siyosati darajasiga kutarilgan. Bu holat pedagoglarga, xususan musiqalar sohasida ta'lim berayotgan ustozlarga ham yuksak ma'suliyat yuklaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

YUNESKO Xalqaro me'oriy hujjatlari. – T.: Adolat, 2004. – 234 b.

Uzbekistan – nash ob'ekti. – T.: Tvorchesko-poligraficheskiy dom «Uzbekiston», 2019.

Lex.uz/ Uzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.